

O'zbekiston va Pokiston ilmiy hamkorlik masalalari muhokama qilindi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Pokiston Islom Respublikasi Peshovor universiteti qoshidagi geologiya markazi professori Muhammad Kasim Jan tashrif buyurdi. Mehmonni O'zR FA prezidenti B.Yuldashev kutib oldi. Uch rashuvda FA bosh ilmiy kotibi G'.Baxadirov, Navoiy bo'limi raisi A.Mirzayev, O'simlik moddalari kimyosi instituti direktori Sh.Sagdullayev va Fizika-texnika instituti direktori X.Olimovlar ishtirok etdi.



Dastlab FA prezidenti B.Yuldashev FA faoliyati, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ularning yo'nalishlari, so'nggi yillarda erishilgan ilmiy yutuqlar haqida qisqacha ma'lumot berdi. So'ngra professor Muhammad Kasim Jan Pokiston Islom Respublikasi Peshovor universiteti qoshidagi geologiya markazi faoliyati bilan tanishtirdi.

Uch rashuv davomida ilmiy hamkorlik masalalari muhokama qilindi va kelgusida har ikki davlat uchun manfaatli bo'lgan hamkorlik yo'nalishlari va ularni kengaytirish bo'yicha rejalar belgilab olindi.